

TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT OLISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19207555>

Safarbekova Xamroxon Adashaliyevna

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi Axborot-resurs markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotida axborot olish madaniyatini shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, unda ta'lim muassasalarida axborot olish madaniyatini shakllantirish yo'llari misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *axborot, axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, jamiyat, kutubxona, internet, iqtisodiyot, ahamiyat, ta'lim.*

Аннотация

В данной статье раскрывается важность формирования культуры получения информации в развитии общества. Также на примерах показаны пути формирования культуры получения информации в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *информация, информационная культура, информационная безопасность, общество, библиотека, интернет, экономика, значение, образование.*

Abstract

This article reveals the importance of forming an information culture in society's development. It also shows, using examples, ways to form a culture of obtaining information in educational institutions.

Keywords: *information, information culture, information security, society, library, internet, economy, importance, education.*

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – bu, axborotga bo'lgan munosabat, ya'ni axborot madaniyatidir. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli resurslarning ko'payishi va global axborot makonining shakllanishi ta'lim sohasida ham chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning raqamli savodxonligi va axborotdan oqilona foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi, har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi [1].

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rni yanada oshdi.

Ma'lumki, globallashuv jarayonida arziyasi, ahamiyati katta bo'lmagan bir xabar ham ba'zan katta tarixiy voqea va global hodisaga sabab bo'lishi mumkin. Demak, insonning axborot sohasidagi

xavfsizligini ta'minlash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa o'z navbatida bilishga, ya'ni reallik va borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan vobastadir. Ko'r-ko'rona yoki atayin qorani oqqa bo'yab ko'rsatish mavjud holatni maqsadli o'zgartirishga olib keladi. Shu sababli hozirgi kunda yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Axborot madaniyatini atamasi ikkita asosiy tushunchaga asoslanadi: madaniyat va axborot. Shunga ko'ra, ko'plab tadqiqotchilar ushbu atamani talqin qilishda axborot va madaniy yondashuvlarni aniqlaydilar. Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtayi nazaridan axborot madaniyati axborot jamiyatida insonning yashash usulidir. U insoniyat madaniyati taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning "madaniyat" va "axborot" yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi [2].

Axborot madaniyati – bu insonning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash va undan foydalanish jarayonidagi madaniy yondashuvi, axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabatidir. Boshqacha aytganda, bu shaxsning axborot olish, uzatish va tarqatishda axloqiy, huquqiy hamda texnik qoidalarni hisobga olgan holda harakat qilish qobiliyatidir [3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Zamonaviy axborot madaniyati o'zining barcha oldingi shakllarini o'ziga singdirdi va ularni yagona vositaga birlashtirdi. Ijtimoiy hayotning alohida jihati sifatida u ijtimoiy faoliyatning subyekti, vositasi va natijasi sifatida harakat qiladi, odamlarning amaliy faoliyatining tabiati va darajasini aks ettiradi. Bu sub'ektning faoliyati va yaratilgan narsalarni saqlash, madaniy ob'ektlarni tarqatish va iste'mol qilish jarayonining natijasidir.

N.I.Gendina o'qituvchining axborot madaniyatini insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq bo'lgan va uning turli ijodiy qobiliyatlari mahsuli bo'lgan shaxsning umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida tushunadi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchining axborot madaniyati uning axborot dunyoqarashini, ham an'anaviy, ham yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy axborotga bo'lgan ehtiyojni optimal qondirish uchun mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan bilim va ko'nikmalar tizimini tavsiflaydi.

L.I.Lazarevaning fikricha, o'qituvchining axborot madaniyati - bu mutaxassisning axborot madaniyatining bir turi, kasbiy pedagogik faoliyat sohasi bilan belgilanadigan shaxsning axborot madaniyatining bir qismi, bu axborot dunyoqarashi va axborot kompetensiyasi, ta'lim jarayoniga tarjima qilingan, axborot va ta'lim mahsulotlarining sifatini aniqlaydigan va talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kemerovo davlat madaniyat va san'at akademiyasining yetakchi mutaxassislari N.I.Gendina, N.I.Kolkova, I.L.Skipor, G.A.Starodubovalar "shaxsiy axborot madaniyati" tushunchasining quyidagi talqinini taklif qiladilar: "Shaxsning axborot madaniyati – bu, shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri; an'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda individual axborotga bo'lgan ehtiyojni optimal qondirish uchun maqsadli mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan axborot dunyoqarashi va bilim va ko'nikmalar tizimi. Bu muvaffaqiyatli kasbiy va noprofessional

faoliyatning, shuningdek, axborot jamiyatida shaxsning ijtimoiy xavfsizligining eng muhim omilidir". Shu bilan birga, axborotning o'sishi chegaralari va axborot madaniyatini [4].

MUHOKAMA VA NATIJA

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi – axborot-kutubxonachilik bilimlarining o'quvchilar orasida targ'ib qilishdir. Buning eng samarali yo'llaridan biri bo'lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o'qish, eng muhimi, uni uqish, o'rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo'lish, ulardan foydalanishni o'rganish kabilar kiradi. Bu esa o'z-o'zidan amalga oshadigan, jo'n narsa emas, albatta. Buning uchun axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislaridan juda keng bilim, mahorat talab qilinadi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o'tish lozim. Tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot-kutubxonachilik darslarini o'tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o'qituvchi va kutubxonachi o'tkazadigan soatlar, darsni o'tkazish joyini, ya'ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o'tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko'pgina o'qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo'lsalar-da, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o'qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma'ruzalar o'qib, ularni axborot-kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o'tish qoidalari, uslubiyotini o'rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o'ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo'lga qo'yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya'ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo'lga qo'yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o'tkazishning aniq shakllarini ishlab chiqish zarur.

Axborot-kutubxona muassasasida o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo'lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir. Shu sababli ham mazkur muammo ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan kompleks o'rganishni taqozo qiladi. Binobarin, tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, kutubxonada o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi pedagogika, psixologiya, falsafa, adabiyotshunoslik, sosiologiya kabi kator fanlar erishgan yutuqlarga tayangan holdagina hal etilishi mumkin.

XULOSA

Axborot-kutubxona muassasasida axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi borasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ma'lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo'lmasdan, inson umr bo'yi o'rganadigan ma'naviy ehtiyojdir.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Axborot olish madaniyatini tarbiyalaydigan asosiy maskan – axborot-kutubxona muassasalaridir. Axborot-kutubxona muassasalari o'z imkoniyatlari bilan nafaqat maktab dasturlarining, Davlat ta'lim standartlarining bajarilishida, balki mustaqil ta'lim olish sari yo'laydi.

Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda maktab-oila-kutubxona hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot olish madaniyatini tarbiyalashdagi asosiy vazifalarni belgilash zarur. Axborot-kutubxona muassasalarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganmasdan turib, haqiqiy kitobxonni kamol toptirish mumkin emas. Xususan, Axborot-kutubxona muassasalarda foydalanuvchilarning yosh xususiyatlari, tipologik jihatlari, ularning psixologik tayyorgarligi, ayniqsa, ulardagi fiziologik o'zgarishlar albatta hisobga olinishi lozim.

Axborot-kutubxona muassasalarida o'quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim:

kitobxonning oilaviy sharoiti, oilada Axborot-kutubxona muassasasining bor-yo'qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o'rganish;

umumta'lim muassasasi dasturidagi fanlarni hisobga olish, bolaning qiziqishlari doirasini aniqlash hamda shunga muvofiq tarzda yakka va ommaviy rahbarlik yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish;

o'quvchida o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirib borish, axborot olish malakalarini shakllantirish;

o'quvchining yosh xususiyatlari va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli-tuman ommaviy shakllardan samarali foydalana olish, mavjud sharoitdan kelib chiqib yangi shakllarni izlab topish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lish;

o'quvchilarni axborot olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ularni Axborot-kutubxona muassasalariga, mutolaaga kengroq jalb qilish;

o'quvchilar o'rtasida axborot-kutubxonachilik bilimlarini keng targ'ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni.
2. Tuganova L.D., Toshtemirov R.A., Shamsiddinova A.F. Axborot madaniyatining jamiyatdagi ahamiyati.
3. Allaberganov I.B. Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari. "Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali. Volume 2, Issue 12, december, 2024.
4. Jumanqo'ziyev O.O. Talabalarning axborot madaniyati rivojlantirishning nazariy metodik asoslari. "Экономика и социум", №4 (119)-2 2024.
5. Muradov M.O. Axborot madaniyati tushunchasi va uning zamonaviy ta'limdagi o'rni.